

BOLALARDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARI SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Yembergenova Gulbanur Tengelbaevna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani

24-maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllanish jarayoni, ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs kamolotidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolalik davrida uchraydigan psixologik himoya shakllari va ularning namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: psixologik himoya, bola psixologiyasi, shaxs rivojlanishi, emotsional holat, moslashuv, stress, himoya mexanizmlari, tarbiya, oila muhiti, psixologik salomatlik.

KIRISH

Inson psixikasi turli tashqi va ichki ta’sirlardan himoyalaniş xususiyatiga ega. Ushbu himoyalaniş jarayoni psixologiyada psixologik himoya mexanizmlari deb ataladi. Psixologik himoya mexanizmlari shaxsning ruhiy muvozanatini saqlashga, salbiy his-tuyg‘ular va stressli vaziyatlarga moslashishga yordam beradi. Bolalik davrida ushbu mexanizmlar asta-sekin shakllanib, shaxs rivojlanishining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Bolalarda psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishi ularning yosh xususiyatlari, oilaviy muhit, tarbiya usullari va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Bola ilk yoshdanoq turli qiyinchiliklar, qo‘rquvlar va emotsional kechinmalar bilan duch keladi. Ana shunday vaziyatlarda uning psixikasi o‘zini himoya qilishning ma’lum usullarini ishlab chiqadi. Bolalarda eng ko‘p uchraydigan himoya mexanizmlaridan biri inkor etish hisoblanadi. Bola o‘zi uchun yoqimsiz yoki qo‘rqinchli bo‘lgan voqelikni qabul qilmaslikka harakat qiladi. Masalan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan bola vaziyatni inkor etishi yoki unga e’tibor bermasligi mumkin.

Yana bir keng tarqalgan himoya mexanizmi regressiya bo‘lib, bunda bola stressli vaziyatlarda o‘zidan kichik yosh davrlariga xos bo‘lgan xatti-harakatlarni namoyon qiladi. Masalan, qo‘rquv yoki xavotir paytida erkalik qilish, yig‘lash yoki kattalarning yordamiga haddan tashqari muhtoj bo‘lish holatlari kuzatiladi.

Proyeksiya mexanizmida esa bola o‘zining salbiy his-tuyg‘ulari yoki istaklarini boshqalarga yuklaydi. Masalan, o‘zi xafa bo‘lgan holda boshqalarni ayblashi mumkin. Bu holat ko‘pincha o‘zini himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Psixologik himoya mexanizmlarining shakllanishida oilaviy muhit muhim o‘rin tutadi. Mehribonlik, qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonch mavjud bo‘lgan oilalarda bolalar stressli vaziyatlarga nisbatan sog‘lom moslashuv ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Aksincha, nizoli yoki zo‘ravonlik mavjud bo‘lgan muhit salbiy himoya shakllarining rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maktab va tengdoshlar muhiti ham bolalarning psixologik himoya mexanizmlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va sog‘lom munosabatlar bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi hamda konstruktiv himoya usullarini rivojlantiradi. Psixologlar va pedagoglar bolalarda sog‘lom psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish uchun ularning his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishlariga imkon yaratishlari, qo‘llab-quvvatlashlari va emotsional xavfsizlik muhitini ta’minlashlari lozim. Psixologik himoya mexanizmlari tushunchasi ilk bor 1894-yilda Zigmund Freyd tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U o‘zining “Himoya neyropsixozlari” asarida inson ruhiyatida yuz beradigan ichki ziddiyatlarni tushuntirish jarayonida ushbu atamani qo‘llagan. Freyding fikricha, inson ongiga yoqimsiz yoki xavotir uyg‘otuvchi kechinmalar kirib kelganda, ruhiyat o‘zini himoya qilish uchun maxsus mexanizmlarni ishga soladi. Ushbu mexanizmlar shaxsni ruhiy zo‘riqishdan saqlashga xizmat qilsa-da, ayrim hollarda voqelikni to‘liq va obyektiv qabul qilishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Freyd tomonidan siqib chiqarish, inkor etish, proyeksiya, regressiya, ratsionalizatsiya va reaktiv shakllanish kabi himoya mexanizmlari tavsiflangan. Masalan, siqib chiqarish orqali inson yoqimsiz xotira va kechinmalarni ong ostiga surib qo‘yadi, proyeksiya esa

o'zidagi nomaqbul sifatlarni boshqalarga nisbat berish orqali namoyon bo'ladi. Ratsionalizatsiyada shaxs o'z xatti-harakatlarini mantiqiy izohlar bilan oqlashga harakat qiladi, regressiyada esa murakkab vaziyatlarda bolalarga xos xulq-atvor shakllariga qaytish kuzatiladi. Keyinchalik Freydning qizi Anna Freyd ushbu nazariyani rivojlantirib, himoya mexanizmlarining inson hayoti davomida shakllanishi va takomillashishini asoslab berdi. Uning ta'kidlashicha, himoya mexanizmlari nafaqat tug'ma xususiyatlarga, balki shaxsning individual tajribasi va rivojlanish jarayoniga ham bog'liqdir.

Psixanalitik va gumanistik yo'nalish vakillari ham himoya mexanizmlarini turlicha talqin qilganlar. Masalan, Erix Fromm ayrim himoya shakllarini agressiv xulq-atvor bilan bog'lagan bo'lsa, Karen Xorni insondagi xavotir, ishonchsizlik va himoyalaniish ehtiyojlarini asosiy omillar sifatida ko'rsatgan. Rus psixologlari R.M. Granovskaya, F.V. Bassin, V.S. Rottenberg va boshqa olimlar esa psixologik himoyani shaxsning ruhiy barqarorligini saqlovchi muhim mexanizm sifatida tadqiq etganlar. Xususan, Granovskaya psixologik himoya inson ongini ortiqcha salbiy axborotdan himoya qilishi bilan birga, ayrim hollarda voqelikni buzib qabul qilishga ham sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

Psixologik himoya mexanizmlari ayniqsa o'smirlik davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda shaxsning dunyoqarashi kengayadi, mustaqil qaror qabul qilishga intilishi kuchayadi va turli ruhiy ziddiyatlar yuzaga keladi. Hayotiy tajribaning yetarli emasligi, stressli vaziyatlarga moslashishdagi qiyinchiliklar va emotsional beqarorlik o'smirlarni turli himoya usullaridan foydalanishga undaydi. Agar bu mexanizmlar konstruktiv shaklda namoyon bo'lsa, ular shaxsning ruhiy muvozanatini saqlashga yordam beradi. Aksincha, samarasiz himoya usullaridan muntazam foydalanish deviant xulq-atvor, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar va shaxslararo munosabatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar orasida eng ko'p uchraydigan himoya mexanizmlaridan biri proyeksiyadir. Bu mexanizm orqali shaxs o'zida qabul qila olmaydigan sifatlarni boshqalarga yuklaydi. Natijada u o'zini ruhiy jihatdan himoyalagandek bo'lsa-da, atrofdagilar bilan munosabatlarda nizolar, tushunmovchiliklar va salbiy hissiyotlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois o'smirlarning

psixologik himoya mexanizmlarini o'rganish va ularni sog'lom yo'nalishda shakllantirish shaxs kamoloti hamda ijtimoiy moslashuvning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Psixologik himoya va mexanizmlarini shakllantirish muammosini o'rganishning dolzarbligi hamda ahamiyati jamiyatdagi hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy o'zgarishlar bilan ham bog'liq bo'lib, ular shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayoniga ta'sir qiladi. Bu ta'sir rivojlanishning o'tish davrida, ayniqsa, muhimdir. Jamiyat va oiladagi ijtimoiy o'zgarishlar o'smirlarda hissiy noqulaylik va ichki zo'riqishning kuchayishiga olib keladi va ular bu holatni shaxsiy qiyinchilik sifatida boshdan kechirishadi, bu esa atrofidaqilar bilan munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, bugungi kunda o'smirlarning o'zining va atrof-muhitning barqarorligini hamda hissiy jihatdan qabul qilishini saqlashga yordam beradigan psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirishni o'rganishga qiziqish ortib bormoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, psixologik himoya mexanizmlari bolalarning ruhiy salomatligini saqlash va hayotiy qiyinchiliklarga moslashishida muhim ahamiyatga ega. Ularning sog'lom shakllanishi oila, maktab va ijtimoiy muhitning ijobiy ta'siri bilan bevosita bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
3. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
5. Shoumarov G'.B. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
6. Sigmund Freud. Psixoanalitik nazariya.
7. Anna Freud. Psixologik himoya mexanizmlari nazariyasi.